THE PERSPECTIVE OF NEW ERA SCIENCES
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
www.global-science-review.com
editor@global-science-review.com

YANGI O’ZBEKISTONDA INVESTITSIYA FAOLLIGINI OSHIRISHNING ASOSLARI

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Jamoat xavfsizligi universiteti professori,
iqtisodiyot fanlari doktori
VALIYEV BOBUR BATIROVICH

(O‘zbekiston mustaqilligining 35 yilligiga bag’ishlanadi)

Annotatsiya

_____ maqolada O‘zbekistonda 2017–2025-yillarda amalga oshirilgan investitsiya siyosatining asosiy yo‘nalishlari, huquqiy-institutsional asoslari va amaliy natijalari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy va xususiy kapitalni jalb etish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish, investorlar huquqlarini himoya qilish hamda investitsiya jarayonlarini raqamlashtirish borasida amalga oshirilgan islohotlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, investitsiyalar hajmining dinamikasi, moliyalashtirish manbalari, hududiy va tarmoq tarkibidagi o‘zgarishlar tahlil qilinib, xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyotidagi roli baholangan.

Kalit so‘zlar: investitsiya siyosati, investitsiya muhiti, xorijiy investitsiyalar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, investitsiya faolligi, investitsiya muhiti, davlat-xususiy sheriklik, investitsiya loyihalari, investitsiyalarning tarmoq tarkibi, ***hududiy investitsiyalar, iqtisodiy modernizatsiya, “O‘zbekiston – 2026” strategiyasi.***

Национальная гвардия Республики Узбекистан
Профессор Университета общественной безопасности,
доктор экономических наук
ВАЛИЕВ БОБУР БАТИРОВИЧ

ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

(Посвящается 35-летию независимости Республики Узбекистан)

Аннотация

В статье проведен комплексный анализ основных направлений, правовых и институциональных основ, а также практических результатов инвестиционной политики Узбекистана в 2017–2025 годах. Рассмотрено значение реформ, направленных на улучшение инвестиционного климата, привлечение иностранных и частных инвестиций, развитие механизмов государственно-частного партнерства, защиту прав инвесторов и цифровизацию инвестиционных процессов. Проанализирована динамика инвестиционной активности, структура источников финансирования, а также отраслевые и территориальные изменения в распределении инвестиций.

Ключевые слова: инвестиционная политика, инвестиционный климат, иностранные инвестиции, прямые иностранные инвестиции, инвестиционная активность, государственно-частное партнерство, инвестиционные проекты, структура инвестиций, региональные инвестиции, экономическая модернизация, технологическое развитие, Стратегия «Узбекистан – 2030».

National Guard of the Republic of Uzbekistan
Professor at the University of Public Safety,
Doctor of Economics
VALIYEV BOBUR BATIROVICH

FOUNDATIONS FOR ENHANCING INVESTMENT ACTIVITY IN THE NEW UZBEKISTAN

(Dedicated to the 35th Anniversary of the Independence of the Republic of Uzbekistan)

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the main directions, legal and institutional foundations, and practical outcomes of Uzbekistan’s investment

policy during 2017–2025. The study examines the significance of reforms aimed at improving the investment climate, attracting foreign and private capital, developing public-private partnership mechanisms, protecting investors' rights, and digitalizing investment processes. The dynamics of investment activity, sources of investment financing, as well as sectoral and regional changes in investment allocation are analyzed.

Keywords: investment policy, investment climate, foreign investment, foreign direct investment, investment activity, public-private partnership, investment projects, investment structure, regional investment, economic modernization, technological development, "Uzbekistan–2030" Strategy.

Mamlakatimizda 2030-yilgacha iqtisodiyotni barqaror yuqori sur'atlarda rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotning yillik o'sishini kamida 6 foiz darajasida ta'minlash, investitsiyalar hajmini YAIMga nisbatan kamida 30 foizga yetkazish, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, sanoatni yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirish, yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, qayta tiklanuvchi energetikaga investitsiyalarni kengaytirish, logistika va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalarga investitsiyalarni keskin oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilandi. Shuningdek, davlat investitsiyalarining samaradorligini oshirish, xususiy investitsiyalar ulushini ko'paytirish, xalqaro kapital bozorlariga faol chiqish, korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish, davlat korxonalarini IPO va SPO mexanizmlari orqali transformatsiya qilish hamda investorlar uchun yanada ochiq, shaffof va prognoz qilinadigan biznes muhitini shakllantirish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida investitsiya siyosati endilikda nafaqat investitsiyalar hajmini oshirish, balki ularning sifatini yaxshilashga ham yo'naltirilmoqda. Jumladan, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish, ilm-fan va innovatsiyalarni tijoratlashtirish, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, bioiqtisodiyot, yashil energetika, sanoat kooperatsiyasi, eksportga yo'naltirilgan

klasterlar va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilanmoqda. Shu bilan birga, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, investorlar bilan individual ishlash tizimini joriy etish, loyiha boshqaruvining zamonaviy usullaridan foydalanish, investitsiya jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish hamda "bir investor – bir loyiha – bir mas’ul" tamoyilini keng qo‘llash orqali investitsiya boshqaruvi samaradorligini oshirish nazarda tutilgan.

2022-yilda *Humanities and Social Sciences Communications* jurnalida chop etilgan tadqiqotda Xitoy ishlab chiqarish korxonalarining mikro ma’lumotlari asosida xorijiy investitsiya va mahalliy korxonalar innovatsion faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari xorijiy investitsiya mahalliy korxonalarning innovatsion ko‘rsatkichlarini yaxshilashini va bunda raqobat hamda qo’shimcha ta’sirlari muhim kanal bo‘lishini ko‘rsatgan. Ta’sir, ayniqsa, yuqori unumdorlikka ega, kapital sig‘imi yuqori va eksportga yo‘naltirilgan korxonalarda kuchliroq kuzatilgan1. Shuningdek, Chen, Jiang, Liang va Pan tomonidan *Journal of Comparative Economics* jurnalida 2022-yilda chop etilgan tadqiqotda xorijiy investitsiyaning Xitoy mahalliy korxonalarining patent faoliyatiga ta’siri o‘rganilgan. Mualliflar xorijiy investitsiya mahalliy korxonalarning innovatsiyalarining miqdori va sifatini, jumladan, radikal innovatsiyalarni oshirishini aniqlagan. Tadqiqotda ushbu ta’sirning muhim mexanizmi sifatida raqobat kuchayishi ko‘rsatilgan 2 . Bu tadqiqotlar investitsiya siyosatining zamonaviy konsepsiyasida xorijiy investitsiyani shunchaki moliyaviy resurs emas,

---

1 Yue, W. Foreign direct investment and the innovation performance of local enterprises. *Humanit Soc Sci Commun* **9**, 252 (2022). https://doi.org/10.1057/s41599-022-01274-6

2 Yongmin Chen, Haiwei Jiang, Yousha Liang, Shiyuan Pan, The impact of foreign direct investment on innovation: Evidence from patent filings and citations in China, Journal of Comparative Economics, Volume 50, Issue 4, 2022,

Pages 917-945, ISSN 0147-5967, https://doi.org/10.1016/j.jce.2022.05.005.

balki innovatsion raqobatni kuchaytiruvchi iqtisodiy institut sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy adabiyotlarning muhim xulosalaridan biri shuki, xorijiy investitsiyalarning ijobiy samarasi o’z-o’zidan bo’lmaydi. Masalan, 2021-yilda *Frontiers in Environmental Science* jurnalida rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqot xorijiy investitsiya va yashil unumdorlik o‘rtasidagi munosabatda mamlakatning innovatsion salohiyati muhim chegaraviy omil ekanligini ko‘rsatgan[3]. Innovatsiya darajasi past bo‘lgan mamlakatlarda xorijiy investitsiyaning yashil unumdorlikka ta’siri salbiy bo‘lishi mumkin, innovatsion faoliyat ma’lum chegaradan oshganda esa xorijiy investitsiya ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bu natija “absorptive capacity” — qabul qilish va o‘zlashtirish salohiyati konsepsiyasining zamonaviy investitsiya siyosatidagi ahamiyatini kuchaytiradi. Ya’ni xorijiy investor texnologiya olib kirgan taqdirda ham, mahalliy korxonalarda: malakali kadrlar, ilmiy-tadqiqot salohiyati, innovatsion infratuzilma, raqamli kompetensiyalar, moliyaviy imkoniyatlar, menejment sifati yetarli bo‘lmasa, xorijiy investitsiyaning texnologik qo’shimcha samarasi cheklanishi mumkin. Shu sababli zamonaviy investitsiya siyosati xorijiy investitsiya jalb qilish siyosatini ta’lim, innovatsiya, sanoat siyosati va kichik biznesni rivojlatirish siyosati bilan integratsiya qilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasining 2017 yildan boshlangan investitsiya faoliyatini aks ettiruvchi yangi tendensiyalar mamlakat iqtisodiyotining transformatsiya davridagi eng muhim indikatorlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi va u iqtisodiy islohotlarning samaradorligini tahlil qilishda fundamental asos bo‘la oladi. Ushbu davrda boshlangan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar, xususan, valyuta bozorining

3 Xu S and Li Z (2021) The Impact of Innovation Activities, Foreign Direct Investment on Improved Green Productivity: Evidence From Developing Countries. Front. Environ. Sci. 9:635261. doi: 10.3389/fenvs.2021.635261

liberallashtirilishi va tashqi savdo to‘siqlarining olib tashlanishi natijasida investitsiyalarning o‘sish sur’ati dastlabki yillarda jadal sur’atlarda o‘sganini ko‘ramiz. Chunki 2017-yildagi 107,1 foizlik ko‘rsatkich 2019-yilga kelib o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga, ya’ni 138,1 foizga yetdi, bu esa mamlakatga xorijiy kapitalning kirib kelishi uchun "darvoza" ochilgan va davlat investitsiya dasturlari doirasida yirik infratuzilmaviy loyihalar boshlangan bosqich sifatida tavsiflanadi (1-rasm).

Biroq, 2020-yilda butun dunyoni qamrab olgan COVID-19 pandemiyasi global ta’minot zanjirlarining uzilishiga va investitsion faollikning pasayishiga olib keldi. Natijada O‘zbekistonda ham o‘sish sur’ati 100,7 foizgacha sekinlashdi, ammo shuni alohida ta’kidlash joizki, iqtisodiyotning chidamliligi tufayli ko‘rsatkich 100 foizlik chegaradan pastga tushmadi. Bu esa iqtisodiy barqarorlikning muhim belgisidir. 2021-yilda kuzatilgan 105,2 foizlik biroz tiklanishdan so‘ng, 2022-yilda global geosiyosiy vaziyatning murakkablashishi va logistika xarajatlarining keskin oshishi fonida o‘sish sur’ati yana 100,2 foizga tushib, turg‘unlik xavfini yuzaga keltirdi, lekin hukumat tomonidan ko‘rilgan tezkor choralar va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari investitsiya oqimini saqlab qolish imkonini berdi.

2023-yildan boshlab iqtisodiyotda yangi o‘sish sikli boshlandi, bunda energetika sohasidagi, ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo‘yicha yirik loyihalar va sanoatni modernizatsiya qilishga qaratilgan xususiy investitsiyalar asosiy drayver bo‘lib xizmat qildi. Bu esa 2023-yilda 122,1 foiz va 2024-yilda 131,3 foizlik yuqori o‘sish ko‘rsatkichlarida o‘z aksini topdi. 2025-yilga kelib o‘sish sur’atining 110,5 foiz darajasida barqarorlashishi iqtisodiyotning ekstensiv o‘sishdan sifatli va barqaror rivojlanish bosqichiga o‘tayotganini anglatadi, bunda asosiy e’tibor nafaqat kapital hajmini oshirishga, balki uning samaradorligi va yuqori texnologik sohalarga yo‘naltirilishiga qaratildi.

Hududiy kesimda tahlil qiladigan bo‘lsak, investitsiyalarning asosiy qismi hamon Toshkent shahri (jami investitsiyalarning qariyb 25-26 foizi), Navoiy va Toshkent viloyatlari kabi sanoatlashgan hududlarga to‘g‘ri kelmoqda, biroq

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa chekka viloyatlarda ham maxsus iqtisodiy zonalar orqali investitsion jozibadorlik ortib bormoqda. Xususan, 2017-yilga nisbatan 2026-yilgi prognozlarda hududlararo investitsion muvozanatni ta’minlashga qaratilgan strategik siljishlar kuzatilmoqda. Aytish mumkinki, 2017–2025-yillar oralig‘idagi ushbu dinamika O‘zbekistonning investitsion muhiti tashqi shoklarga nisbatan yuqori adaptiv xususiyatga ega ekanligini va uzoq muddatli barqaror o‘sish uchun mustahkam poydevor yaratilganini ko‘rsatadi. Bu esa 2026-yilda ham investitsiya oqimlarining diversifikatsiyalashgan holda davom etishiga zamin yaratadi va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning ijobiy o‘sish trayektoriyasini saqlab qolmoqda.




1-rasm. O’zbekistonda investitsiyalar o’sish sur’atlari, 2017-2025 yillar

2017-2025 yillarda mamlakatimizda xorijiy investitsiya va kreditlar o'sish dinamikasi O‘zbekiston iqtisodiyotining so‘nggi to‘qqiz yillikdagi transformatsiya jarayonlarini, tashqi dunyoga ochilish siyosatini va xalqaro moliya bozorlaridagi nufuzini tahlil qilish uchun eng muhim strategik manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 2017-yilda mamlakatda boshlangan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar, xususan, valyuta bozorining liberallashtirilishi va

xorijiy investorlar uchun yaratilgan huquqiy kafolatlar natijasida investitsiya oqimi dastlabki yildayoq 120,5 foizlik o‘sish bilan boshlangan bo‘lsa, 2018-yilda bu ko‘rsatkich 145,2 foizga yetib, investorlarning mamlakat iqtisodiy salohiyatiga bo‘lgan ishonchi ortib borayotganini tasdiqladi. Yangi rivojlanish davrining eng diqqatga sazovor nuqtasi bu shubhasiz 2019-yil bo‘lib, unda o‘sish sur’ati misli ko‘rilmagan darajada — 250,4 foizga yetganini ko‘ramiz, bu esa O‘zbekistonning xalqaro obligatsiyalar bozoriga chiqishi, yirik davlat korxonalarini modernizatsiya qilish uchun jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar va xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalari ochilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan "investitsion portlash" davri sifatida tarixda qoladi.

Biroq, 2020-yilda butun dunyoni qamrab olgan global pandemiya va uning natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy cheklovlar xorijiy kapital harakatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmadi, natijada o‘sish sur’ati 105,1 foizgacha pasaydi. Ammo shunga qaramay, ko‘rsatkichning 100 foizdan yuqori saqlanib qolishi O‘zbekistonning hatto inqirozli vaziyatlarda ham o‘z majburiyatlarini bajarishga qodir ekanligini va investitsion jozibadorligini yo‘qotmaganini anglatadi. 2021-yilda kuzatilgan 115,8 foizlik va 2022-yildagi 109,4 foizlik ko‘rsatkichlar global geosiyosiy beqarorlik va logistika zanjirlaridagi uzilishlar fonida iqtisodiyotning moslashuvchanligini ko‘rsatgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib investitsion faollikning yangi to‘lqini boshlandi va o‘sish sur’ati 151,2 foizni tashkil etdi. Bu asosan energetika sohasidagi "yashil" loyihalar, infratuzilmani rivojlantirish va sanoat klasterlarini tashkil etishga yo‘naltirilgan yirik xorijiy kapital oqimi natijasidir.

O‘zbekistonda xorijiy investitsiya va kreditlarning 2024-yilda 122,4 foiz va 2025-yilda 112,8 foiz darajasida kuzatilgan o‘sish sur’atlari iqtisodiyotning barqaror va prognoz qilinadigan rivojlanish bosqichiga o‘tganidan dalolat beradi (2-rasm). Bunda asosiy e’tibor nafaqat miqdorga, balki investitsiyalarning sifatiga, ya’ni yuqori texnologik ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga va eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar hajmini oshirishga qaratilmoqda.



2-rasm. O‘zbekistonda xorijiy investitsiya va kreditlarning o‘sish sur’atlari, 2017-2025 yillar


Hududiy kesimda olib qaraganda, ushbu xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlaridagi yirik sanoat obyektlariga yo‘naltirilayotgan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa chekka hududlarda ham xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni keskin ortib bormoqda. Bu esa mamlakatning barcha 14 ta hududida birdek iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi. 2017–2025-yillar oralig‘idagi ushbu dinamika O‘zbekistonning jahon iqtisodiy hamjamiyatidagi o‘rni mustahkamlanib borayotganini, xorijiy investorlar uchun uzoq muddatli va ishonchli hamkor sifatida shakllanganini hamda 2026-yilda ham ushbu ijobiy tendensiya yangi sifat bosqichida davom etishini ko‘rsatmoqda, bu esa o‘z navbatida aholi farovonligini oshirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashning asosiy omilidir.

O‘zbekiston iqtisodiyotining so‘nggi sakkiz yillikdagi tub burilishlarini, davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki keskin kamayib, bozor mexanizmlari va xalqaro kapitalning o‘rni salmoqli darajada ortmoqda. Investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo‘yicha chuqur tahlil qiladigan bo‘lsak, eng avvalo, xorijiy

investitsiyalarning ulushi 2017-yildagi 23,8 foizdan 2025-yil yakuniga kelib 70,5 foizga yetgani mamlakatimizning xalqaro maydondagi investitsion jozibadorligi naqadar yuqori darajaga ko‘tarilganidan va tashqi dunyoga ochilish siyosati o‘zining amaliy mevasini berayotganidan dalolat beradi (3-rasm). Bu misli ko‘rilmagan o‘sish O‘zbekistonning global moliya bozorlarida ishonchli hamkor sifatida tan olinganini, mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilayotgan kapitalning nafaqat hajmi, balki sifati ham o‘zgarganini, ya’ni yirik transmilliy korporatsiyalar va xalqaro moliya institutlari uzoq muddatli strategik loyihalarga mablag‘ yo‘naltirayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, davlat byudjeti mablag‘larining investitsiyalar tarkibidagi ulushi 15,1 foizdan 4,8 foizgacha keskin kamayishi iqtisodiyotni liberallashtirish yo‘lidagi eng katta yutuq bo‘lib, bu davlatning asosiy investorlik funksiyasidan voz kechib, tartibga soluvchi va qulay biznes muhiti yaratuvchi subyektga aylanganini, byudjet mablag‘lari esa endilikda ko‘proq ijtimoiy sohalarga, inson kapitalini rivojlantirishga va strategik infratuzilmaga yo‘naltirilayotganini anglatadi.

Korxona mablag‘larining ulushi 30,1 foizdan 18,5 foizga pasaygan bo‘lsa-da, bu mahalliy tadbirkorlarning faolligi kamayganini emas, balki xorijiy kapital oqimining umumiy hajmi shunchalik kengayganiki, natijada ichki manbalarning nisbiy ulushi kamayib ko‘rinayotganini ko‘rsatadi, aslida esa mutloq qiymatda korxonalarning o‘z mablag‘lari hisobidan investitsiya kiritish salohiyati oshib bormoqda. Bank kreditlarining ulushi 11,8 foizdan 3,2 foizga va aholi mablag‘larining ulushi 11,4 foizdan 3 foizga tushishi esa investitsiya bozorida moliyaviy resurslarni jalb qilishning muqobil va samaraliroq manbalari, xususan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va xalqaro kredit liniyalari ustuvorlik kasb etayotganini, bank tizimi esa ko‘proq tijorat loyihalarini qayta moliyalashtirishga o‘tayotganini tasdiqlaydi. Aytish mumkinki, 2025-yil yakunlariga ko‘ra O‘zbekiston investitsiya modeli to‘liq transformatsiyaga uchrab, u markazlashgan davlat investitsiyalaridan xususiy va xalqaro kapitalga asoslangan zamonaviy bozor modeliga o‘tgan, bu esa iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlash va milliy

iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tarkibiy o‘zgarishlar nafaqat sanoatni modernizatsiya qilish, balki yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi turmush darajasini yuksaltirish uchun mustahkam poydevor yaratadi, zero xorijiy investitsiyalar bilan birga mamlakatga eng zamonaviy texnologiyalar, nou-xau va xalqaro boshqaruv standartlari kirib kelmoqda, bu esa 2026-yilda ham iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning asosiy kafolatidir.



3-rasm. O‘zbekistonda investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari tarkibi, 2017 va 2025 yillar

O‘zbekiston iqtisodiyotining hududiy transformatsiyasi va investitsiya siyosatining geografik ustuvorliklari qanday o‘zgarayotganini tahlil qilsak, eng avvalo, mamlakat iqtisodiy xaritasida jiddiy tarkibiy siljishlar yuz berayotganini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, 2017-yilda investitsiyalarning asosiy qismi an’anaviy ravishda Toshkent shahri va resurslarga boy bo‘lgan Buxoro hamda Qashqadaryo viloyatlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2025-yil yakunlari bo‘yicha investitsiya oqimlarining diversifikatsiyalashuvi va yangi sanoatlashgan markazlarning kengayishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Toshkent shahri o‘zining yetakchilik mavqeini saqlab qolgan holda ulushini 18,1 foizdan 18,5 foizga yetkazgan bo‘lsa, eng hayratlanarli va strategik ahamiyatga ega o‘sish

Toshkent viloyatida kuzatilmoqda, ya’ni uning ulushi 8,2 foizdan 13,8 foizga yetishi poytaxt atrofida ulkan sanoat xabi va logistika markazlari shakllanayotganidan, shuningdek, "Toshkent — sanoat markazi" konsepsiyasining amaliy natijasidan dalolat beradi.

Namangan viloyatining ulushi ham keskin o‘sib, 5 foizdan 9,8 foizga yetishi ushbu hududning tadbirkorlik va kichik sanoat zonalari orqali investitsion jozibadorligi qanchalik ortganini, voha iqtisodiyotining yangi drayveriga aylanayotganini ko‘rsatadi, aksincha, 2017-yilda yirik gaz va kimyo loyihalari hisobiga yuqori ulushga ega bo‘lgan Buxoro (16,1 foizdan 11,5 foizga) va Qashqadaryo (15,5 foizdan 8,2 foizga) viloyatlarida ulushning nisbiy kamayishi ushbu hududlarda yirik investitsion loyihalarning yakunlanish bosqichiga o‘tgani yoki investitsiya siyosatining ekstensiv resurs qazib olishdan ko‘proq yuqori qo‘shilgan qiymatli qayta ishlash sohalariga yo‘naltirilayotgani bilan izohlanadi. Navoiy, Samarqand, Andijon va Jizzax viloyatlarida kuzatilayotgan barqaror o‘sish tendensiyasi ushbu hududlarning ixtisoslashuv darajasi ortayotganini, xususan, Jizzaxda avtomobilsozlik va Navoiyda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining kengayishi investitsiya oqimini barqaror ushlab turganini tasdiqlaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, 2017–2025-yillar O‘zbekistonda investitsiya siyosatining mazmuni, institutsional asoslari va amalga oshirish mexanizmlari tubdan yangilangan, mamlakat iqtisodiyotining investitsion modelida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab bergan davr bo‘ldi. Mazkur davrda investitsiyalar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish vositasidan iqtisodiy o‘sish, tarkibiy diversifikatsiya, innovatsion rivojlanish, eksport salohiyatini oshirish va hududlar iqtisodiy faolligini ta’minlovchi strategik omilga aylandi. Ayniqsa, valyuta bozorining liberallashtirilishi, investitsiya qonunchiligining takomillashtirilishi, investorlar huquqlarining kafolatlanishi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining kengaytirilishi va investitsiyalarni boshqarishning institutsional tizimi

takomillashtirilishi O‘zbekistonning xalqaro investitsiya makoniga faol integratsiyalashuvi uchun muhim zamin yaratdi.

Yutuqlar ko’p, ammo investitsiyalar hajmining oshishi avtomatik ravishda ularning iqtisodiy samaradorligi yuqori ekanligini anglatmaydi. Shu sababli kelgusi bosqichda O‘zbekiston investitsiya siyosatining asosiy e’tibori investitsiyalar hajmini ko‘paytirishdan ularning sifatini, texnologik darajasini, eksportga yo‘naltirilganligini va multiplikativ samarasini oshirishga qaratilishi lozim. Xususan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faqat kapital manbai sifatida emas, balki yangi texnologiyalar, boshqaruv tajribasi, innovatsiyalar, malaka va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvni ta’minlovchi mexanizm sifatida jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida investitsiya siyosatining samaradorligini oshirish uchun, avvalo, hududlar kesimida investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholashning yagona tizimini joriy etish; yuqori texnologiyali, eksportbop va import o‘rnini bosuvchi loyihalarga ustuvorlik berish zarur. Shunday qilib, Yangi O‘zbekistonda investitsiya faolligini oshirishning keyingi bosqichi **“ko‘proq investitsiya” tamoyilidan “samaraliroq, texnologikroq va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan investitsiya” tamoyiliga o‘tishni** talab etadi. Bunda investitsiya siyosatining yakuniy natijasi jalb qilingan kapital hajmi bilan emas, balki uning iqtisodiy o‘sish, mehnat unumdorligi, yangi ish o‘rinlari, eksport, texnologik yangilanish, hududlar rivoji va aholi farovonligiga qo‘shgan hissasi bilan baholanishi lozim.

Adabiyot va manbalar

1. **World Bank (2024).** *Global Economic Prospects, June 2024: Harnessing the Benefits of Public Investment.* Washington, DC: World Bank. https://thedocs.worldbank.org/en/doc/f43fb9163f5e4704740c30b614a9ad59-0050012024/related/GEP-June-2024-Topical-Issue-1-highlights.pdf?utm_source

2. **OECD (2022).** *FDI Qualities Policy Toolkit.* OECD Publishing, Paris. DOI: 10.1787/7ba74100-en. https://www.oecd.org/en/publications/fdi-qualities-policy-toolkit_7ba74100-en/full-report/component-6.html?utm_source

3. **Qazi, M. A., & Ammad, S. (2021).** Public investment efficiency and sectoral economic growth in Pakistan. *Development Policy Review, 39,* 450–470. DOI:10.1111/dpr.12493.

4. **Xu, S. & Li, Z. (2021).** The Impact of Innovation Activities, Foreign Direct Investment on Improved Green Productivity: Evidence From Developing Countries. *Frontiers in Environmental Science, 9*. DOI: 10.3389/fenvs.2021.635261.

5. **Christopoulou, D., Papageorgiadis, N., Wang, C., & Magkonis, G. (2021).** IPR Law Protection and Enforcement and the Effect on Horizontal Productivity Spillovers from Inward FDI to Domestic Firms: A Meta-analysis. *Management International Review, 61,* 235–266.

6. **Yue, W. (2022).** Foreign direct investment and the innovation performance of local enterprises. *Humanities and Social Sciences Communications, 9,* 252. DOI:10.1057/s41599-022-01274-6.